

**Chiriq shahar  
8-umumi o`rta ta`lim maktabining  
kimyo fani o`qituvchisi Xasanova  
Nargiza Ismagilovnaning 7”B”-sinfda  
“Oila,mahala,maktab-tarbiya  
maskani” mavzusida o`tgan tarbiyaviy  
soat dars ishlanmasi**



**Mavzu:Oila,mahalla,maktab-tarbiya maskani.**

## Maqsad:

**1.Tarbiyaviy maqsad:**Mahalla-ma`naviyat va tarbiya o`chog`i. Ta`lim va tarbiya birligi sharqona hayot falsafasi haqidagi bilimlarni berish.Buyuk ajdodlarimizning ibratlari hayot va faoliyati.Oila tarbiyasi-ma`naviy kamolot poydevori.Oliyanob fazilat-komillikni belgilari.

**2.Tarbiyaviy maqsad:**O`quvchilar ongi tafakkurida “Ma`naviyat” tushunchasini shakllantirish:ma`naviyatni tarixda va bugungi kundagi ahamiyatini qiyoslash:ozodlik,mustaqlilikka erishishdagi mashaqqatlar:taraqqiyotga erishishdagi jahon xalqlari tajribasi ma`naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar haqidagi tushunchalarini shakillantirish.Mahallada yashayotgan insonlarni bir-biriga do`stona munosabatini shakllatirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** Ma`naviyat,vatanparvarlik,ma`naviy meros,madaniy boyliklar,tarixiy yodgorliklar,Alisher navoiyning 575 yilligi,Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlarimizning hayoti va ijodi o`rganishni rivojlantirish.

**Darsning jihozi:**1.Didaktik:I.Karimovning “Vatan va xalq mangu qoladi.” va “Yuksak ma`naviyat-engilmas kuch”kitobi.2.Texnik:Slayd,kompyuter,multimediya.

**Drasning borishi:I.Tashkiliy qism:A)Salomlashish.B)Davomatni aniqlash.S)O`quvchilarni darsga tayyorlash.**

**II.Uyga vazifani tekshirish.** Uyga vazifa o`quvchilarga mahalla, oil ava maktab haqida malumotlar tayyorlab kelish berilgan.

**III.Yangi mavzuni bayoni:**O`qituvchning kirish so`zi:Bugungi darsimizda oila,mahalla va maktab birgalikda tarbiya maskani ekanligi haqida suhbotlashamiz.Buning uchun sizlar bilan 3 guruhga bo`linib olamiz.I-guruh “Oil”,II-guruh “Mahalla”,III-guruh “Maktab”.

I-guruh “**Oila**” guruhi boshlab beradi. Bu yorug` olamda hayot bor ekan-oila bor. Oila bor ekan-farand deb atalmish bebahो ne`mat bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.

Oila farovonligi-milliy farovonlik asosidir.

Oila sog'lom bo'lsa,jamiyat sog'lom,mamlakat qudratli,yurt tinch-osovishta bo'ladi.

Oila-har qanday odamga paryoz uchun qanot beradigan muqaddas qo'rg'on.

Faxriylar –xonadonlarimiz farishtalari.Tarbiya – har bir insonning yashash jarayonida orttirgan sabohlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni.

Ota-ona san'atkor,  
bola san'at asari,  
tarbiya jarayoni  
san'atning o`zidir

«Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo  
najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat  
masalasidir»              A.Avloniy



## II-guru "Mahalla"guruhiba yuzlanamiz.

Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish instituti- mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lmini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etishini nazarda tutgan holda, "Fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga, "Fuqarolar yig'ini raisi(oqsoqoli) va uniq maslahatchilari saylovi to'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariraislari saylov tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishi, fuqarolar faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va rolining oshirilishini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni nazarda tutadigan tegishli o'zgarish va qo'shimchalar kiritishni, hurmatli o'quvchilar men sizlarga qonunga kiritiladigan o'zgarishlar haqidagi 1 ta ma'lumot bilan tanishtirdim, y ana qanday o'zgarishlar kiritilish haqida hurmatli Prezidentimiz o'z ma'rurasida aytib o'tdilar: **O'quvchilar javobi:**

- "O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish:
- O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksiga jamiyat va davlat qurilishi, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli sohalarida nodavlat-notij orat tashkilotlari huquqlarini belgilab bergan qonun hujjatlari talablarini buzganligi uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirishni nazarda tutadigan o'zgarish va qo'shimchalar kiritish. \*
- "Ekologik nazorat" to'g'risidagi qonun loyihasini ishlab chiqish va boshqa qator qonun hujjatlarini qabul qilish haqidagi qonunchilik tashabbuslari bildirilmoqda Judayam to'g'ri,

yuqoridagi qonun hujjatlarini takomillasjtirish nodavlat-notij orat tashkilotlari va boshqa fuqarolik institutlari rolini yanada kuchaytirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratlashtirish va mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuviga hizmaq qilishga qaratilgandir.

**O'zbekistonda o'z-o'zini boshqarish tuzilmasi hisoblangan mahalla alohida ahamiyatga ega. Yashash joyidagi milliy o'z-o'zini boshqarishning o'ziga hos modeli bo'lgan mahalla, xalqimizning asriy an'analari va urf odathariga tayanib, muhim tashkiliy-iqtisodiy va tarbiyaviy funksiyani bajaradi. Zero, mahalla timsolida mavjud bo'lgan fuqarolik jamiyatining negizi-O'zbekistonda bunday jamiyatni shakllantirishning tayanch nuqtasi bo'lib hizmat qiladi.**

**Keling endi o'zimiz yashab turgan mahalla haqida gaplashib olamiz.**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 1.2-sentyabrdagi Farmoniga ko'ra, yurtimizda "Mahalla" xayriya jamg'armasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-oktyabr "Respublikasi Mahalla xayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masallalari to'g"risida"gi qarori, Oliy Majlisining 1993-yil 2-sentyabr va 1999-yilning 14-apreldagi sessiyasida yangi tahrirda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish to"g"risida"gi Qonun tufayli mahallaning maqomi mustahkam huquqiy asosga egabo'ldi.**

**Mahalla - nia'naviy-ahloqiy qadryatlar, an'analar saqlanib, rivojlantiriladigan maskan. Aynan mahallalarda qadimdan bayramlar, hayit kunlari, to'y-tantanalar qo'ni-qo'similar, bemorlar, yolg'iz keksalarni sovg'a-salomlar bilan yo'qlash urfga kirgan. Hashar yo'lli bilan qarindosh-urug'larga uy-**

joy binolarini bonyod etish, yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarini yig'ib-terib oish va ulardan qo'ni-qo'shnilariga ularshish, ko'chalar, hovlilar, mahalla hududini, qabristonlar va tevarak-atrofni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, sport maydonchalar barpo qilish, yo'llar, ko'priklar qurish va ularai ta'mirlash, madaniy yodgorliklarni avaylab-asrash mahallada yashayotgan har bir kishining qon-qoniga singib ketgan burch hisoblanadi.

Bugungi kunda mahalla fuqarolar yig'lnlai huzuridagi mutasaddi kengashlar rahbarligida uning kengashlar rahbarligida uning hududida jamoat tartibini saqlash, yoshlar va o'mirlar o'rtasida huquqbazarlikning oldini olish, voyaga yetmaganlarning huquqlarini muhofaza qilish, yoshlarni harbiy xizmatni o4ashga jismoniy va ma'naviy jihatdan tayyorlash vazifalari muvaffaqiyatli hal etilyapti.



**Mahalla yoshlarni kasb-hunarga yollovchi, ishsizlarni mehnat bilan ta 'minlovchi maskan ham.** Har bir oilaning o'z kasb sulolasi bo'lganidek, mahallaning ham uzoq tarixga ega kasb-hunar sulolalari mavjud. Avvalgi darslarimizda ta'kidlaganimizdek, ayrim mahallalarning nomi ham muayyan hunar nomlariga mos shakllangandir. Masalan, zardo'zlar mahallasi, etikdo'zlar mahallasi, duradgorlar yoki temirchilar mahallasi va hokazo. Mahallalarining o'z imkoniyati, ixtisoslashuvi va hududiy sharoitidan kelib chiqqan holda zardo'zlik, etikdo'zlik, do'ppido'zlik, duradgorlik, temirchilik, beshiksozlik, ganchkorlik, sandiqsozlik, sartaroshlik, to'quvchilik, ko'nchilik va hokazo kasb-hunar turlri bo'yicha kichik korxonalar, to'garaklar tashkil etilgan. Bunday korxonalarning tashkil etilishidan, avvalo, mahalla ahli manfaatdor - uning ma'lum qismi ish bilan ta'minlanadi. Yoshlar kasb-hunar sirlarini egallab, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalanib borishlari natijasida ularning bo'sh vaqtি unumli tashkil etilib, turli noaxloqiy xatti-harakatlar (jinoyatçilik, ichkilikbozlik, axloqsizlik, giyohvandlik va hokazolar) oldi olinadi.

**Mahalla - tarbiya maskanl**.Mahalla hududida o'sayotgan har bir yigit-qizning axloq-odobi uchun butun mahalla ahli mas'ul. Chunki mahallada yoshlarning har bir xatti-harakati barchaning diqqat markazida bo'ladi. Mahalladoshlarning har bir yosh taqdiriga javobgarlig, ular uchun kiyinishi, yurish-turishini nazorat qilishi barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirish omili hisoblanadi. Zero, xulq-odobi chiroyli, har tomonlama namunali farzand mahallaning obro'si, noqobil, axloqan nomaql bolalar esa mahallaning obro'si uchun dog" hisoblanadi. Mahalladan yurtga, dunyoga taniqli insonlar yetishtirib chiqsa, butun mahalla ahli g'ururlanadi, boshini baland ko'taradi. Va aksincha, "falon mahallada mana bunday xunuk ish bo'pti" degan gap barchaning boshini xam qiladi, hamiyatiga tegadi.

Shu tufayli ham mahalla tartib-qoidalariga uning butun ahli amal qilishi shart sanaladi. Kimda-kim bularga rioya etmasa, ularni hurmat qilmasa, u mahallada o'tadigan tadbirlarga, to'y-marakalarga taklif ham etilmaydi. Agar kibr-u havo bilan qo'ni-qo'shni, mahalla ahli an'analarini oyoqosti qilsa yoki bepisandlik bilan munosabatda bo'lsa, amaldagi me'yorlarga xilof ish tutsa, u mahalladan chiqarib yuboriladi. •

Bugungi mahallalarimiz erkin fikrlilik asosida rivojlanyapti. Har bir fuqaro u yerda o'tkaziladigan tadbirlar, tashkiliy-tarbiyaviy ishlar yuzasidan o'z nuqtai nazari, qarashlari, taklif va tavsiyalarini ochiq bildrish huquqiga ega. Chunki erkin fikr faqat mahalla muhitining emas, balki butun mamlakatimizda amalgam oshirilayotgan demokratik islohotlarning ma'naviy poydevorini tashkil etishi lozim.

Mahalla ahlining ma'naviy-axloqiy tarbiya yo'sinida bir-birlariga maslahat berishlari ham har jihatdan foydalidir.

Shuningdek, to'y va boshqa ma'raka-marosimlarda yoshlarni ko'pchilikning ishiga jalg etish nihoyatda muhim bo'lib, bu yumushlarini bajarish davomida ulrga nimaga e'tibor berish, kimga qanday muomala-munosabatda bo'lish kerakligini o'rgatiladi.

Mahalla - oila tinch totuvligini, jipsligini 1 mustahkamlaydigan joy hisoblanadi.

Endi navbat"**Maktab**"guruhiga beriladi.Maktab-taraqiyotning boshlang'ich,madaniyat va saodatning kalitidir.Mamlakatimizda 9700 ta zamonaviy umumiyo'rt ta'lim maktabi bor.Ularda 4 million 521 mingdan ortiq bola ta'lim olmoqda.Ilk bor maktab ostonasiga qadam qo'yadigan 1-sinf o'quvchilari har yili davlat hisobidan"Alifbe"kitobi va boshqa darsliklar,zarur o'quv qurollar bilan bepul ta'minlanadi.Bundan tashqari, maktabo'quvchilari uchun 34 million 500ming nushadagi darsliklar,o'quv -qo'llanmalar yurtimizdagи ta'limo lib boriladigan 7tilda nashr qilinib ,barcha maktablarga yetkazib beriladi.



[www.uza.uz](http://www.uza.uz)

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 1997 yilda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi,2004 yilda esa maktab ta'limini rivojlantirish davlat umumiymilliy dasturi qabul qilinib,hayotga izchil tatbiq etildi. Hozirgi vaqtida yurtimizda 12 yillik majburiy bepul ta'lim tizimi faoliyati ko`rsatmoqda.Keyingi yillarda yangi-yangi maktablar,akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o`quv yurtlari bilan berga turli hududlar ,jumladan,olis qishloq vatumanlarda 315 ta zamonaviy musiqa va san`at maktabi,1500 dan ziyod bolalar sport obyektlari barpo etildi.

Ta`limni tarbiyadan,tarbiyani ta`limdan ajratib bo`lmaydi.

Darsda faol qatnashgan o`quvchilarni baholash

Uyga vazifa: Oila mahalla maktab mavzusida insho yozish

